

Lizing Operatsiyalarini Amalga Oshirishning Xorij Tajribasi

Pardayev Durbek Ilyos o'g'li¹, X. Raximova²

Maqola mavzusining asoslanganligi va uning bugungi kundagi dolzarbligi. Bugungi globalashuv zamonida dunyoning barcha davlatlarida bo'lgani kabi O'zbekiston Respublikasida ham iqtisodiyotni raqamlashtirishda banklarning kapitallashuvi darajasini oshirish, ularning barqarorligini ta'minlash maqsadida 2020-yil 12-mayda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2020-2025 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida" gi 5992-sonli Farmoni qabul qilingan. Ushbu strategiyada bank xizmatlari sifatini oshirish va ko'lamini kengaytirishda aynan lizing amaliyotlarini rivojlantirish, moliyaviy xizmatlar ommabopligini oshirishda iqtisodiy samarador moliyaviy vositachilik va mahsulotlarini taklif qilish imkoniyatiga ega lizing kompaniyalarini tashkil etish zarurligi ham ko'rsatib o'tilgan.

Vatanimiz taraqqiyotini va xalq farovonligini ta'minlashning asosiy shartlaridan biri bo'lib, albatta iqtisodiyotning jadal rivojlantirish zarurati hisoblanadi. Yurtimiz iqtisodiyotini rivojlantirishning asosiy omillaridan biri iqtisodiyotning barcha tarmoqlarini jahon bozori talablari darajasiga mos ravishda eksportbop va import o'rnini bosuvchi raqobatbardosh ishlab chiqarish, yuqori xizmat ko'rsatish va samarali savdoni tashkil etishga etkazish uchun bu sohalarni doimiy modernizasiya qilib borish kerak va bu o'z navbatida barqaror moliyalashtirish zaruratini tug'diradi.

Lizingning asosiy afzalliklaridan biri shundaki, u korxonalariga kerakli aktivlarni to'g'ridan to'g'ri sotib olish bilan bog'liq yuqori dastlabki xarajatsiz sotib olish imkonini beradi. Buning o'rniga, ular aktivning narxini ijara muddatiga taqsimlashlari mumkin. Ya'ni, korxonalar lizing shartnomasi amal qilish muddatida o'z biznesining byudjetini aniq hisoblash va korxonalar pul oqimlarini rejali boshqarish imkoniyatiga ega bo'ladi, chunki lizing shartnomasi asosidagi hisob-kitob bir xil miqdorga teng oylik to'lovlarni ko'zda tutadi. Bu, ayniqsa, cheklangan pul oqimiga ega bo'lgan yoki o'z kapitalini boshqa maqsadlarda (misol uchun joriy aktivlarda) saqlashni afzal ko'rgan korxonalar uchun foydali bo'lishi mumkin. Yuqorida bayon qilingan fikr mulohazalarning barchasi mazkur Maqola ning asoslarini, bugungi kundagi dolzarbligini belgilab beradi.

Tadqiqot ob'ekti. O'zbekiston Respublikasi lizing bozori sub'ektlari, xususan Chet el kapitali ishtirokidagi "Hamkorbank" ATBning lizing bilan bog'liq faoliyati hisoblanadi.

Tadqiqot predmeti. Tijorat banklarida lizing operatsiyalarini amalga oshirish va ularning hisobini yuritish tartib tamoyillari hisoblanadi.

Tadqiqot maqsadi. O'zbekiston Respublikasida lizing operatsiyalarini rivojlantirish bo'yicha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar berishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun dissertatsiyada quyidagilar asosiy vazifalar etib belgilandi:

- Tijorat banklarida lizing operatsiyalari tushunchasi, mohiyatini o'rganish;
- O'zbekiston lizing bozorining hozirgi holatini tadqiq qilish, dinamikasini o'rganish;
- Tijorat banklarda lizing operatsiyalarini tashkil etish asoslari va uni tadqiq qilish;
- Tijorat banklarida lizing operatsiyalarini hisobini yuritish tartib tamoyillarini tadqiq qilish;
- Tijorat banklarida lizing operatsiyalarini takomillashtirish bo'yicha takliflar berish.

¹ O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi magistranti

² Ilmiy rahbar: Dotsent



Ilmiy yangiligi (asosiy natijalari). O‘zbekiston Respublikasida iqtisodiyotni jadal rivojlanishi uchun tadbirkorlik sub’ektlarining uzoq muddatli investision xarajatlarini barqaror moliyalashtirish vositalarini jumladan, lizing operasialarini rivojlantirish, lizing bozori ishtirokchilarini rag‘batlantirish, ularga soliq va davlat bojlarini qo‘llashda imtiyozlar berish, tijorat banklarida bozor talablariga mos yangi lizing mahsulotlarini taklif qilish zarurligi aniqlandi va amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

Tadqiqotning asosiy masalalari. O‘zbekiston Respublikasida lizing bozorini rivojlantirish va tijorat banklari tomonidan lizing operasialari amalga oshirish tartib tamoyillarini tadqiq qilish natijasida berilgan taklif va tavsiyalar orqali uni takomillashtirish yoritildi. Bu o‘z navbatida tadbirkorlik sub’ektlarining uzoq muddatli investision xarajatlarini barqaror moliyalashtirish vositasi sifatida lizing operasialarini rivojlanishiga va tijorat banklarining lizing bozorida ulushini ko‘tarilishiga xizmat qilishi mumkin.

Tadqiqot mavzusi bo‘yicha adabiyotlar sharhi (tahlili). Tadqiqot davomida lizingga oid iqtisodchilarining ilmiy asarlari (G‘.Nabiev), O‘zbekiston Respublikasi qonunlari, kodekslari, Prezident qaror va farmonlari, Markaziy bank nizomlari, tijorat banklarining lizing ajratish bo‘yicha ichki tartiblari, O‘zbekiston lizing uyushmasi saytidan olingan statistik ma‘lumotlar, ilmiy maqolalar, darsliklar va ilmiy konferensiya materiallaridan foydalanildi.

Tadqiqotda qo‘llanilgan metodikaning tavsifi. Maqolada guruhlashtirish, taqqoslash, tizimli yondashuv tahlil usullari qo‘llanildi.

Tadqiqotda natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijasida berilgan taklif va amaliy tavsiyalardan mavjud lizing bozorida mavjud muammolarni hal etish bo‘yicha chora-tadbirlar ishlab chiqishda, lizing munosabatlarini rivojlantirish bo‘yicha yangi bank mahsulotlarini taklif etishda va banklarda lizing amaliyotlarini takomillashtirishda qo‘llanilishi mumkin. Maqola materiallaridan oliy o‘quv yurtlarida “Bank ishi”, “Buxgalteriya hisobi” fanlari o‘kuv dasturlarini takomillashtirish va o‘qitishda foydalanilishi mumkin.

Lizing uzoq yillardan buyon muntazam rivojlanib kelayotgan moliyaviy va ijara munosabatlarining ko‘rinishidir. Lekin lizingning bugungi kundagi shakliga etib kelishiga AQSh kompaniyalarining va lizing munosabatlarining evolyusiyasi katta ta’sir o‘tkazgan. Dastlabki zamonaviy lizing munosabatlari 1877 yil 9 iyulda AQSh ning Massachusets shtatining Boston shahrida Aleksandr Grem Bellning qaynotasi Gardiner Grin Xabbard tomonidan tashkil etilgan “Bell Telephone Company” tomonidan telefon uskunalarini sotmasdan ularni lizingga berish bilan boshlangan. Ushbu amaliyot keyingi asrga o‘tib, rivojlanishda davom etib, 1933 yilga kelib, yuk mashinalarining birinchi lizingi amalga oshirilgan. 1942 yilda “General Motors Group” ga qarashli sho‘ba korxonasi avtotransport vositalarini lizingni taklif qila boshladi. Biroq, ishlab chiqaruvchilar tomonidan taklif etilayotgan lizing bo‘yicha qancha qulayliklar yaratilgan bo‘lmasin, ishlab chiqaruvchilar va iste’molchilar ijara munosabatlariga kirishishdan qanchalik manfaatdor bo‘lishmasin, lizing avj olib rivojlanib ketmadi. Sababi, ularning boshini birlashtiradigan uchinchi vositachi – maxsus lizing kompaniyalari shakllanib ulgurmagani edi. Amerikalik ishbiarmon va tadbirkorlar bu zaruriyatni tushunib yetdilar va 1952-yilda San-Fransisko shahrida ishbiarmon Genri Shonfeld tomonidan asos solingan birinchi lizing kompaniyasi Amerika Qo‘shma Shtatlari Lizing Korporatsiyasi (United States Leasing Corporation - USL) tashkil etildi va USL tarixan birinchi lizing kompaniyasi hisoblanadi. Bu zamonaviy lizingning rivojlanishi yo‘lida tarixiy qadam bo‘ldi. Mazkur kompaniyaning muvaffaqiyatli faoliyati natijasida uning yangi ochilgan o‘nlab sho‘ba korxonalari dunyoning boshqa mamlakatlarida ham o‘z ishini boshladi. Keyinchalik ushbu lizing kompaniyasi “United States Leasing International” nomini egalladi. Dastlab tashkil etilgan kompaniyalar juda muvaffaqiyatli va tez rivojlanib borganligi sababli boshqa erkin bozorga asoslangan mamlakatlarda ham lizingni rivojlanishiga olib keldi. Evropada, xususan 1962-yilda Germaniyada Deutsche Leasing GmbH, Maschinen-Miete GmbH, Deutsche Anlagen-Leasing GmbH va Mietfinanz GmbH kabi bir nechta yangi kompaniyalar tashkil etildi. Avstriyada BACA-Leasing va LD-Leasing lizing bozoriga birinchilardan bo‘lib kirib keldi.

Bugungi kundagi zamonaviy lizing (moliyaviy ijara) amaliyotlari o‘tgan asrning 50-yillarida AQShda



shakllanib, o'zining takomillashgan shakliga kirdi. Ikkinchi jahon urushidan so'ng AQShda sanoatning tez rivojlanishi natijasida katta miqdorda ishlab chiqarilgan texnologik uskunalar, dengiz kemalari va boshqa qimmatbaho mashina-mexanizmlarni to'liq to'lovga pulga to'xtovsiz sotish imkoniyatlari chegaralangan sababli, ularni ijaraga berish manfaatli usul ekani ma'lum bo'ladi. Agar shunday yo'l tutilmasa, ishlab chiqarilgan tovarlar sotilmasdan, iqtisodiy inqirozlar vujudga kelishi mumkin edi. Shuning uchun AQSh hukumati tomonidan lizing munosabatlarini rag'batlantirish maqsadida katta imtiyozlar ko'zda tutilgan maxsus dasturlar qabul qilinib, lizingni rivojlanishiga katta turtki berildi. Jumladan, qo'llanilgan soliq imtiyozlariga jadallashtirilgan amortizasiya va investisiyalangan soliq imtiyozlarini (yangi investisiyalar qiymatining 10 foizigacha soliq summasidan chiqarib tashlandi) keltirib o'tish mumkin.

Bugungi kunda AQShdagi lizing beruvchilar uchta guruhga bo'linadi: mustaqil lizing kompaniyalari, banklar(banklar qoshida ochilgan lizing kompaniyalari) va ishlab chiqaruvchilar qoshida ochilgan lizing kompaniyalari. Lizing Amerika Qo'shma Shtatlarida uzoq yillar davomida yaxshi tashkil etilgan lizing kompaniyalari va lizingni rag'batlantiradigan qulay soliq kodeksi bilan mashhur moliyalashtirish manbai bo'lib kelmoqda. Quyida AQShda lizingning moliyalashtirish vositasi sifatidagi afzalliklari va muammolari hamda lizing sanoatining o'sishiga hissa qo'shgan omillar haqida to'xtalib o'tamiz:

a) Lizingning afzalliklari

Lizing AQShdagi korxonalar uchun soliq imtiyozlari, dastlabki xarajatlarni kamaytirish va uskunalarni yangilashda ko'proq moslashuvchanlikni o'z ichiga olgan bir qator afzalliklarni taqdim etishi mumkin. Lizingning asosiy afzalliklaridan biri uning taqdim etadigan soliq imtiyozlaridir. AQShda lizingga olingan aktivlar korxonaning soliq deklarasiyasida xarajatlar qismiga kiritilishi mumkin, bu esa lizingning umumiy xarajatlarini kamaytirishiga olib keladi. Lizing, shuningdek, asbob-uskunalarini to'g'ridan to'g'ri sotib olish bilan solishtirganda kamroq dastlabki xarajatlar bilan asosiy vositadan foydalanishni va foyda olishni ta'minlashi mumkin. Bu esa uni biznes uchun yanada qulayroq moliyalashtirish variantiga aylantiradi. Lizing uskunalarni yangilashda ko'proq moslashuvchanlikni ham ta'minlaydi. Chunki korxonalar mavjud ijara muddati tugagach, eski uskunani sotish yoki yo'q qilish xarajatlari haqida qayg'urmasdan, yangi uskunani ijaraga olishlari mumkin. Ya'ni, lizing oluvchi lizing ob'ektini mulk qilib olish majburiyatini olmaydigan, uni qaytarib berish shakli ham amaliyotda ishlatiladi.

b) Lizingning qiyinchiliklari

AQShda va butun dunyoda lizingga biror bir aktiv olinayotganda uning narxining balandligi kuzatiladi, chunki korxonalar ma'lum muddat davomida aktivdan foydalanganliklari uchun to'lov qiladilar. Xuddi shu aktivni lizingga emas to'g'ridan to'g'ri sotib olishda uning narxi bir muncha pastroq ekanligini ko'rish mumkin. Lizing shartnomasiga asosan lizing ob'ektidan foydalanishdagi cheklovlar ham potensial kamchiliklardan biri hisoblanadi. Lizing kompaniyalari odatda aktivdan foydalanishga cheklovlar qo'yishi mumkin, masalan, lizingga olingan avtomobillar uchun masofani cheklash. Ushbu cheklovlar aktivlarni ijaraga beruvchi korxonalarning moslashuvchanligi va avtonomligini cheklanishiga olib keladi.

c) Tartibga soluvchi omillar

Ma'lum bir mamlakatda lizingning qabul qilinishiga tartibga soluvchi omillar ham ta'sir qilishi mumkin. AQShda lizing sohasi ham federal, ham shtat darajasida tartibga solinadi. Federal zahira kengashi iste'molchi lizingini tartibga soladi, shtat qonunlari esa tijorat lizingini boshqaradi. Qo'shma Shtatlarda lizing bo'yicha me'yoriy-huquqiy baza odatda lizing sohasida shaffoflik va adolatli amaliyotni rag'batlantiradigan qoidalar bilan qulay shaklda tartibga solinadi.

d) Madaniy omillar

Ma'lum bir mamlakatda lizingni qabul qilishga madaniy omillar ham ta'sir qilishi mumkin. AQShda lizingni qabul qilishni cheklashi mumkin bo'lgan ijaradan ko'ra mulkchilikni afzal ko'radigan madaniy fikr mavjud. Biroq, bu fikrlash, ayniqsa, aktivlarga to'g'ridan to'g'ri egalik qilish o'rniga ularni ijaraga olish yoki ijaraga berish g'oyasiga ochiqroq bo'lgan yosh avlodlar orasida o'zgarimoqda.



e) Lizing tarmog‘ining o‘shiga yordam beruvchi omillar

AQShda lizing sanoatining o‘shiga bir qancha omillar yordam berdi. Asosiy omillardan biri lizingni rag‘batlantiradigan qulay soliq kodeksidir. Lizingning soliq imtiyozlari uni biznes sub‘ektlari, xususan, moliyalashtirishning boshqa shakllaridan foydalana olmaydigan kichik va o‘rta korxonalar uchun jozibador variantga aylantirdi. Lizing sohasining rivojlanishiga turtki bo‘lgan yana bir omil - bu lizingning keng imkoniyatlari va xizmatlarini taklif etuvchi yaxshi tashkil etilgan lizing kompaniyalarining mavjudligidir. Ushbu kompaniyalar lizingni tadbirkorlar uchun yanada qulayroq bo‘lishiga xizmat qilib kelmoqda. Xulosa o‘rinda lizing AQShda uzoq yillar davomida yaxshi tashkil etilgan lizing kompaniyalari va lizingni rag‘batlantiradigan qulay soliq kodeksi bilan lizing munosabatlari ishtirokchilari uchun moliyalashtirishning qulay manbai bo‘lib kelmoqda. Lizing biznes uchun soliq imtiyozlari va dastlabki xarajatlarni kamaytirish kabi bir qator afzalliklarga ega bo‘lsada, shuningdek, sotib olish bilan solishtirganda umumiy xarajatlar va aktivlardan foydalanishni cheklash kabi potensial kamchiliklar mavjud bo‘lib kelmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**I. O‘zbekiston Respublikasi Qonunlari**

1. O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksi
2. O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki to‘g‘risida” gi Qonuni 2019 yil
3. O‘zbekiston Respublikasining “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida” gi Qonuni 2019 yil
4. O‘zbekiston Respublikasining “Lizing to‘g‘risida” gi Qonuni 2019 yil
5. O‘zbekiston Respublikasining “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida” gi Qonuni, 2016 yil

II. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Qarorlari va farmonlari, Vazirlar Mahkamasining Qarorlari, Markaziy banki Nizomlari

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60 son “2022 - 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” gi Farmoni
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2020-2025 yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish staregiyasi to‘g‘risida” gi PF-5992-sonli Farmoni, 2020 yil 12 may
8. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining “Tijorat banklarida lizing operasiyalarini amalga oshirish va ularning buxgalteriya hisobini yuritish tartibi to‘g‘risida” gi 1648-son Nizom, 2006 yil 27 dekabr
9. O‘zbekiston Respublikasi banklarida buxgalteriya hisobini yuritish va buxgalteriya ishlarini tashkil qilish tartibi to‘g‘risida Yo‘riqnoma, №1834, 2008 yil 11-iyul
10. Tijorat banklarida buxgalteriya hisobining hisobvaraqlar rejasi

III. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari

11. Mirziyoev Sh.M. “Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz” Toshkent, O‘zbekiston NMIU, 2017 yil
12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 25-oktyabrdagi “Bank tizimini isloh qilish va banklarning investisiyaviy faolligini oshirish borasidagi ustuvor vazifalarga bag‘ishlangan yig‘ilish”da so‘zlagan nutqi

IV. Asosiy adabiyotlar

13. D.F.G‘ozibekov, “Lizing munosabatlari nazariyasi va amaliyoti” 2004 yil, 9 b.
14. G‘.Nabiev, M.Marpatov, “Lizing g‘oyasi, tarixi, huquqiy asoslari va amaliyoti”, 2004 yil,



15. A.Ibragimov, N.Rizaev, “Banklarda buxgalteriya hisobining milliy va xalqaro standartlari”, Toshkent 2016 yil
16. F.Abduvoxidov, Z.Umarov, K.Djuraev, “Banklarda buxgalteriya hisobi”, o‘quv qo‘llanma, TDIU, 2010 yil
17. Sh.Abdullaeva, “Bank ishi”, o‘quv qo‘llanma, TMI, 2003 yil

V. Davriy nashrlar, internet saytlar, statistik to‘plamlar va hisobotlar

18. R.Bozorov, “Lizing – investisiya loyihalarini moliyalashtirishning muhim shakli”, “Iqtisodiyot va innovasion texnologiyalar ilmiy elektron jurnali”, 04.08.2017 yil
19. www.cbu.uz – O‘zbekiston Respublikasi Markaziy Banki
20. www.uza.uz – O‘zbekiston Respublikasi Milliy axborot agentligi
21. www.lex.uz – O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari bazasi
22. www.ula.uz – O‘zbekiston Lizing Uyushmasi
23. www.hamkorbank.uz – ChEKI “Hamkorbank

